


Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Bugungi kunda xizmatlar sohasi Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

2019-yil yanvar-oktabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 4560,0 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 114,5 % ga o'sdi.

Xizmatlar tarkibida jami xizmatlarning eng katta ulushi: transport xizmatlari (26,1 %), savdo xizmatlari (23,4 %), moliyaviy xizmatlar (17,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,2 %) hissasiga to'g'ri keldi.


2019-yil yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi, %



Ma'lumot uchun: 2018-yil yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi 3691,9 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2019-yil yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan (868,1 mlrd. so'mga) oshdi. Joriy yilning oldingi 2019-yil yanvar-sentabr oyi davriga nisbatan xizmatlar hajmi (523,9 mlrd. so'mga) ko'paydi.

2019-yilda ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm




Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga transport xizmatlari (110,4 mlrd. so'mga), savdo xizmatlari (122,2 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (96,3 mlrd. so'mga) hamda aloqa va axborotlashtirish (31,5 mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**2019-yil yanvar-oktabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy
ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	4560,0	114,5
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	282,2	111,2
moliyaviy xizmatlar	816,4	171,3
transport xizmatlari	1190,3	108,3
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	644,8	101,1
yashash va ovqatlanish xizmatlari	135,4	104,0
savdo xizmatlari	1067,7	103,7
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	150,0	101,9
ta'lim sohasidagi xizmatlar	235,3	106,5
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	51,5	101,3
ijara xizmatlari	103,5	107,9
kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	139,9	102,4
shaxsiy xizmatlar	174,1	106,7
me'morchilik sohasidagi xizmatlar	87,6	115,0
boshqa xizmatlar	126,1	100,7

**2019-yil yanvar-oktabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'y'cha
bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**



- | | |
|--|---|
| 1 Xizmatlar - jami
2 Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari
3 Moliyaviy xizmatlar
4 Transport xizmatlari
5 Yashash va ovqatlanish xizmatlari
6 Savdo xizmatlari
7 Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 8 Ta'lim sohasidagi xizmatlar
9 Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar
10 Ijara xizmatlari
11 Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yichaxizmatlar
12 Shaxsiy xizmatlar
13 Me'morchilik sohasidagi xizmatlar
14 Boshqa xizmatlar |
|--|---|

2019-yil yanvar-oktabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (71,3 %); me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (15,0 %); Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (11,2 %); kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

**2019-yil yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan
bozor xizmatlarining ulushi, %**

Transport xizmatlari	26,1 %
Savdo xizmatlari	23,4 %
Moliyaviy xizmatlar	17,9 %
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	6,2 %
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	5,1 %
Shaxsiy xizmatlar	3,8 %
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3,3 %
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	3,1 %
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	3,0 %
Boshqa xizmatlar	2,8 %
Ijara xizmatlari	2,3 %
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	1,9 %
Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,1 %

Jami xizmatlar tarkibida eng katta ulush transport xizmatlari (26,1 %), savdo xizmatlari (23,4 %), moliyaviy xizmatlar (17,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,2 %) hissasiga to'g'ri keldi.

**2019-yil yanvar-oktabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Transport xizmatlari	1190,3 mld. so'm
	Savdo xizmatlari	1067,7 mld. so'm
	Moliyaviy xizmatlar	816,4 mld. so'm
	Boshqa xizmatlar	368,7 mld. so'm
	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	282,2 mld. so'm
	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	235,3 mld. so'm
	Shaxsiy xizmatlar	174,1 mld. so'm
	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	150,0 mld. so'm
	Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	139,9 mld. so'm
	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	135,4 mld. so'm

Eng yuqori bozor xizmatlari hajmi transport xizmatlari (1190,3 mld. so'm), savdo xizmatlari (1067,7 mld. so'm), moliyaviy xizmatlari (816,4 mld. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (282,2 mld. so'm) bo'yicha kuzatildi.

Hozirgi vaqtida savdo sohasi iste'molchilarning bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari hudud iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiylajmiining sezilarli qismini tashkil etadi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.


2019-yil yanvar-oktabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 1067,7 mlrd. so'mga teng bo'lди. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiylajmidagi ulushi 23,4 % ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 76,9 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 16,0 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiylajmi savdo xizmatlari hajmida 7,1 % ni egallaydi.

2019-yil yanvar-oktabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



- **Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar**
- **Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)**
- **Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar**

Moliya-bank tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan izchil chora-tadbirlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini va farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovation bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2019-yil yanvar-oktabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 816,4 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 171,3 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-oktabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



**Xizmatlar sohasi statistikasi
bo'limi
71-230-82-15**